

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.08/28.08.2020.San.121.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

UMAROV KAMOLIDDIN XUSNIDDIN O‘G‘LI

ZAMONAVIY IJTIMOIIY-MADANIY JARAYONLARDA
O‘ZBEK TEATRINING O‘RNI
(1991–2023-yy.)

17.00.01 – Teatr san’ati

SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 792:316.7(575.1)“1991/2023”

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Umarov Kamoliddin Xusniddin o‘g‘li

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlarda o‘zbek teatrining o‘rni

(1991–2023-yy.) 3

Умаров Камолиддин Хусниддин угли

Роль узбекского театра в современных социокультурных процессах

(1991–2023 гг.) 21

Umarov Kamoliddin Khusniddin ugli

The role of uzbek theater in modern socio-cultural processes

(1991–2023) 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.08/28.08.2020.San.121.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

UMAROV KAMOLIDDIN XUSNIDDIN O‘G‘LI

ZAMONAVIY IJTIMOIIY-MADANIY JARAYONLARDA
O‘ZBEK TEATRINING O‘RNI
(1991–2023-yy.)

17.00.01 – Teatr san’ati

SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/San288 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida (www.dsmi.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mavrulov Abduxalil Abdulxayevich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

To'ychiyeva Sayyora Suyarqulovna
falsafa fanlari doktori, professor

Ismoilov Anvar Hamdamjonovich
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.08/28.08.2020.San.121.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 20-iyun soat 12⁰⁰dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (28 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-58; faks: (+99871) 230-28-15).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 9-iyun kuni tarqatildi.

(2025-yil 9-iyundagi 12-raqamli reyestr bayonnomasi).



M.T.Tulyaxodjayeva
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

J.A.Mamatqosimov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), professor

A.A.Umarov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, globallashuv hodisasi, turli madaniy transformatsiyalar, qadriyatlar evolyusiyasi, insoniyat ongi va tafakkuridagi o'zgarishlar teatr san'atiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Zero, teatr faqat san'at turigina bo'lib qolmay, ijtimoiy institut sifatida bevosita jamiyat hayotini ham aks ettirmoqda. Dunyo teatrlarida sahnalashtirilayotgan spektakllar, xalqaro miqyosdagi festivallar, gastrol safarlari, forumlar, seminarlar, simpoziumlar va boshqa tadbirlar sahna san'atidagi ijodiy an'analarni yangilash bilan birga, millatlar o'rtasida do'stlik, birodarlik, baynalminal g'oyalar va ijtimoiy-madaniy aloqalarni mustahkamlashi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon teatrshunosligida teatrning ijtimoiy-madaniy hodisalar bilan uzviy jihatlarini o'rganish, xususan, jamiyatda ijtimoiy muhitni shakllantiruvchi, axborot texnologiyalari davrida madaniy identifikatsiyani saqlovchi, yoshlarning ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil sifatida tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, globallashuv zamonida milliy o'ziga xoslik va qadriyatlarni asrab qolish, yosh avlodni turli tahdidlar va axborot xurujlaridan himoya qilish, milliy va umuminsoniy g'oyalarni targ'ib qilishda teatr san'atining ahamiyatini o'rganishga qiziqish kuchayib bormoqda. Aynan bugungi davrda teatr jamiyatda ijtimoiy mexanizmni shakllantiruvchi, insonlarning ruhiy-ma'naviy olami, tafakkur tarzini o'zgartiruvchi, yuksak axloqiy-g'oyaviy qarashlarni ilgari suruvchi omil sifatida zarurat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda milliy madaniyatning barcha sohalarini qo'llab-quvvatlash, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni chuqurlashtirish, badiiy-barkamol san'at asarlari yaratish orqali xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongiga ezgu g'oyalarni singdirishga jiddiy ahamiyat qaratilib, ushbu vazifalarni amalga oshirishda teatr san'atining ijodiy va ijtimoiy funksiyalaridan foydalanish ijobiy samara bermoqda. "Jahondagi eng ommaviy va ta'sirchan san'at turlaridan biri bo'lgan teatr asrlar davomida odamlarni insoniylik va ezgulikka chorlab, ularning qalbida olijanob fazilatlar, go'zal his-tuyg'ularni kamol toptirishga, jamiyat hayotida tinchlik, do'stlik va hamjihatlik, yuksak axloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda".¹ Shu talablardan kelib chiqib, teatrning jamiyat hayotidagi o'rnini oshirish, ijtimoiy-madaniy aloqalarni mustahkamlashdagi ahamiyatini ochib berishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, uslubiy qo'llanmalar yaratish zamonaviy teatrshunoslik fanining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi O'RQ-668-son "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasi milliy madaniyatini yanada rivojlantirish

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – B. 313.

konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021-yil 9-dekabrdagi PQ-36-son “Madaniyat va san’atni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-399-son “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorij mamlakatlarida ijtimoiy-madaniy jarayonlarning teatrga ta’siri masalasi turli fanlar kesimida tadqiq etilgan. L.Bonet, A.Davis, M.Katsaridou, M.Lachman, H.Schargorodskiy² singari olimlarning ilmiy tadqiqotlarida teatrning ijtimoiy xususiyatlari, boshqaruv strukturasi va menejmenti, bugungi ijtimoiy-madaniy dunyoda teatrning asosiy funksiyalari tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqotlar teatrning zamonaviy jamiyatda tutgan o‘rni tobora mustahkamlanib borayotganini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, mazkur tadqiqotlarda teatr jamiyatda sotsial mexanizmni shakllantiruvchi, insonlarning ruhiy-ma‘naviy olami, tafakkur tarzini o‘zgartiruvchi, yuksak axloqiy-g‘oyaviy qarashlarni ilgari suruvchi fenomen kesimida tahlil qilinadi. Teatrning jamiyat hayoti bilan bog‘liq san’at ekanini inobatga olib, kelgusida ham ushbu mavzuda ko‘plab tadqiqotlar olib boriladi va sahna san’atining g‘oyaviy-mafkuraviy, ma‘naviy-ma‘rifiy, ijtimoiy-siyosiy kontekstda tutgan o‘rni o‘rganiladi, deyish mumkin.

MDH mamlakatlarida ham teatrning ijtimoiy-madaniy hodisalar bilan uzviy jihatlarini o‘rganish, globallashuv davrida sahna san’atining jamiyat hayotida tutgan o‘rnini tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, T.Adrianova, Y.Grebenik, G.Ivinskix, O.Kramarenko, O.Koxanaya, A.Menshikov, G.Mostovaya, I.Nesterova, S.Palamarchuk, A.Yureva, L.Zaks, K.Chepelenko³ singari olimlarning

² Davis A.W. Art and politics. Psychoanalysis, ideology, theatre. – London, 2007 – 189 p.; Bonet L., Lachman M. Theatre as a social institution // <https://thetheatretimes.com/theatre-as-a-social-institution>.; Schargorodsky H. Theatre management: models and strategies for cultural venues. – Kunnskapsverket, 2018 – 244 p.

³ Меньшиков А. Фестиваль как социокультурный феномен современного театрального процесса: Автореф. дисс. на соискание ученой степени кан. исс. – Москва, 2004. – 24 с.; Юрьева А. Взаимодействие театра и публики в малом городе: социологический анализ: Автореф. дисс. на соискание ученой степени кан. соц. наук. – Екатеринбург, 2012. – 21 с.; Гребеник Е. Театральная публика как культурный феномен: Автореф. дисс. на соискание ученой степени кан. фил. наук. – Луганск, 2023. – 23 с.; Ивинских Г. Театр в социокультурном контексте времени: на примере художественной практики Пермского академического театра драмы, 1967. – 2001 гг.: Дисс. на соискание ученой степени кан. культ., Москва, 2003. – 238 с.; Мостовая Г. Город и театр: Эволюция системы правовых и организационно-управленческих взаимоотношений, XIX в.: Дисс. на соискание ученой степени кандидата исск. наук. – Москва, 2002. – 211 с.; Нестерова И. Педагогические условия формирования социокультурных ориентаций детей средствами музыкального театра-студии: Дисс. на соискание ученой степени кандидата пед. наук. – Москва, 2000. – 198 с.; Чепеленко К. Социокультурные особенности аудитории современного провинциального театра: Автореф. дисс. на соискание ученой степени кан. соц. наук. – Саратов, 2008. – 46 с.; Закс Л.А. Театр как модель социокультуры // Ярославский педагогический вестник. 2020. – № 3 (114). – С. 174-183.; Коханая О. Социокультурные функции детского и молодежного театра: Дисс. на соискание ученой степени кан. культ.

ishlarida teatrning ijtimoiy funksiyalari, ijtimoiy-madaniy fenomen sifatidagi xususiyatlari, yoshlarning ijtimoiylashuviga ta'siri va zamonaviy jamiyatdagi boshqa muhim vazifalari turli fanlar aspektida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, mazkur tadqiqotlarda teatr jamiyatda ijtimoiy muhitni shakllantiruvchi, insonlarning ruhiy-ma'naviy olami, tafakkur tarzini o'zgartiruvchi, yuksak axloqiy-g'oyaviy qarashlarni ilgari suruvchi omil sifatida tahlil qilinadi. Teatrning jamiyat bilan bog'liq san'at ekanligi inobatga olinsa, kelgusida ham ushbu mavzuda ko'plab tadqiqotlar olib borilishi va sahna san'atining g'oyaviy-mafkuraviy, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy kontekstda tutgan o'rnini o'rganishga ehtiyoj va zarurat bo'lishi, tabiiy.

O'zbek teatrshunosligida ijtimoiy-madaniy jarayonlarning sahna san'atiga ta'siri masalasi muayyan darajada o'rganilgan bo'lib, mazkur tadqiqotlarni ikki guruhga ajratib, tasniflash mumkin. Birinchi guruhni mavzuga bevosita daxldor tadqiqotlar tashkil etib, T.Tursunov, N.Sayfullayev, E.O'rinov⁴ kabilarning ilmiy izlanishlari shunga misol bo'ladi. Ikkinchi guruh esa mavzuga bilvosita bog'liq ilmiy asarlarni qamrab olgan. M.Rahmonov, M.Qodirov, N.Karimov, M.To'laxo'jayeva, I.Muxtarov, S.Qodirova, D.Rahmatullayeva, O.Tojiboyeva, M.Axmetjanova, T.Islomov, H.Ikromov, S.Ahmedov, M.Umarov, Sh.Rizayev, G.Xoliqulova, G.Maxmudova, F.Abduvohidov, K.Sagdullayev, B.Yakubov, M.Mavrulova, A.Ismoilov, Sh.Abdurasulov, S.Nazarova⁵ tadqiqotlarini ushbu guruhga kiritish o'rinli. Shu jihatdan o'zbek teatrshunosligida ijtimoiy-madaniy jarayonlarning sahna san'atiga

– Москва, 2009. – 46 с.; Крамаренко О. Социально-культурное воспитание детей в школьном театральном кружке: Автореф. дисс. на соискание ученой степени кан. пед. наук. – Москва, 2003. – 24 с.; Паламарчук С. Театр и процесс социализация молодежи: Дисс. на соискание ученой степени кан. искусств. – Москва, 1985. – 213 с.; Адрианова Т. Театр как социокультурный феномен // ВЕСТНИК ОГУ. – Тюмень, 2014. – С. 82-85.

⁴ Турсунов Т. Формирование социалистического реализма в узбекской драматургии. – Т.: изд. АН УзССР, 1963. – 163 с.; Октябрьская революция и узбекский театр. – Т.: Фан, 1983. – 192 с.; Sayfullayev N. Yangi davr O'zbekiston teatri: rivojlanish muammolari va izlanish jarayonlari. – T.: Mumtoz so'z, 2011. – 268 b.; O'rinov E. Bugungi o'zbek teatri. – T.: M-Dilshod, 2014. – 156 b.

⁵ Rahmonov M. O'zbek teatri. Qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar. – T.: Fan, 1975. – 287 b.; O'zbek teatri tarixi. XVIII asrdan XX asr avvaligacha – T.: Fan, 1968. – 430 b.; Qodirov M. O'zbek teatri an'analari. – T.: G'afur G'ulom adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. – 420 b.; O'zbek an'naviy teatri. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010 – 468 b.; Karimov N. Jadid teatri. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2016. – 260 b.; Туляходжаева М., Юлдашев Т. Узбекская драматургия на сцене театра. – Т.: Фан, 1990. – 136 с.; Туляходжаева М. Режиссура узбекского драматического театра (тенденции развития и современные проблемы). – Т.: Изд. литературы и искусства имени Г.Гуляма 1995. – 84 с.; Мухтаров И. Театр и классика. – Т.: Изд. литературы и искусства имени Г.Гуляма, 1988. – 176 с.; Театр и его актёры. – Т.: Фан, 1989. – 144 с.; Qodirova S. Komediya san'ati tarixi. – T.: “San'at” jurnali nashriyoti, 2008. – 212 b.; Rahmatullayeva D. Tarix va teatr. – T.: G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022-y. – 364 b.; Tojiboyeva O. Epos va teatr. 1-kitob. – T.: “San'at” jurnali nashriyoti, 2015. – 240 b.; 2-kitob. – T.: “San'at” jurnali nashriyoti, 2016.–208 b.; Axmetjanova M. Teatr san'atining ekzistensial mohiyati va milliy ong shakllanishiga ta'siri: Falsafa fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. – Toshkent, 2022. – 274 b.; Isломov T. Tarix va sahna. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1998. – 136 b.; Ikromov H. Davr va teatr. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. – 165 b.; Ahmedov S. Matbuot va teatr (1917-1927-yillar yangi o'zbek milliy teatrining shakllanish manbalari. San. fan. nomz. diss. – Toshkent, 1998. – 178 b.; Umarov M. Mannon Uyg'ur estetikasi. – T.: Musiq, 2007. – 157 b.; Rizayev Sh. Jadid dramasi. – T.: Sharq, 1997. – 320 b.; Xalikulova G. O'zbek tarixiy drammasi talqinida sahna nutqi masalasi (1980–1990-yy.): San. fan. nom. diss. – Toshkent, 2004. – 184 b.; Махмудова Г. Тема борьбы народов зарубежного Востока на узбекской сцене: Автореф. дисс. на соискание ученой степени кан. исск. – Toshkent, 1984. – 18 с.; Abdvohidov F. Surxondaryo viloyati musiqali drama teatrining shakllanish va taraqqiyoti bosqichlari: San. fan. fal. dok. diss. – Toshkent, 2021. – 147 b.; Sagdullayev K. “Teatr va OAV” kommunikativ tizim sifatida. – T.: Turon-Iqbol, 2017. – 180 b.; Yakubov B. Zamonaviy o'zbek dramaturgiyasi va uning sahnaviy talqini (1991-2016-yy): San. fan. fal. dok. diss. – Toshkent, 2019. – 165 b.; Mavrulova M. Shaxs madaniy-ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirish masalalari. – T.: Fan, 2024. – 328 b.; Ismoilov A. Zamonaviy o'zbek drama teatri rejissurasi: San. fan. fal. dok. diss. – Toshkent, 2019. – 155 b.; Abdurasulov Sh. O'zbekiston teatrlarida nasriy asarlarning sahnaviy talqini: San. fan. fal. dok. diss. – Toshkent, 2022. – 148 b.; Nazarova S. XX asr 20-30-yillaridagi ijtimoiy-siyosiy muhitning o'zbek sahna san'atiga ta'siri: Tar. fan. fal. dok. diss. – Toshkent, 2024. – 54 b.

ta'siri davrlar kesimida yaxlit tadqiqot ishi sifatida o'rganilmagan bo'lib, mazkur tadqiqot bu boradagi ilk qadamlardan ekanligini ta'kidlash joiz.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq A1-081 raqamli "XX-XXI asr boshlarida o'zbek xalqi san'atidagi transformatsiya jarayonlari (tarixiy tahlil)" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mustaqillik davri ijtimoiy-madaniy jarayonlarining o'zbek teatri taraqqiyotiga ta'siri va shakllanish bosqichlarida tutgan o'rnini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlarda o'zbek teatrining o'rnini va rivojlanish bosqichlarini ochib berish;

yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda o'zbek teatri boshqaruvidagi modernizatsiya va transformatsiya hodisalarini aniqlash;

teatr san'ati bo'yicha xalqaro miqyosda tashkil etiluvchi turli festivallar, forumlar, seminarlar va boshqa madaniy tadbirlarning millatlararo munosabatlar va baynalminal g'oyalarni targ'ib qilish, xalqaro integratsion jarayonlarni mustahkamlashdagi ahamiyatini ochib berish;

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar va "yangi ma'naviy makon"ni barpo etishda teatr san'ati zarur ahamiyat kasb etishini dalillashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida teatrlar faoliyatidagi asosiy tendensiyalar, repertuar siyosati, boshqaruv tizimi, xalqaro integratsion aloqalarning badiiy-uslubiy rivojlanish jarayonlari belgilab olingan.

Tadqiqotning predmetini istiqbol yillari sahnalashtirilgan spektakllar, teatr festivallari va ijtimoiy-madaniy tadbirlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda zamonaviy san'atshunoslik ilmining strukturali-funksional, tasniflash, suhbat, qiyosiy tahlil, kuzatuv va kompleks yondashuv kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda an'anaviy tarzda milliy teatr uzoq asrlik tarixga ega ekanligi, sovet mustabid tuzumi sharoitida u kuchli tarzda mafkuralashgani, soxta sotsialistik realizm tamoyili ushbu san'atdagi milliylik unsurlariga salbiy ta'sir ko'rsatganligi aniqlangan;

mustaqillik yillarida o'zbek teatrining ijtimoiy-madaniy faoliyati jamiyat a'zolarida milliy identlikni shakllantirish, teatr boshqaruvi tizimida modernizatsiya, ish faoliyatida milliylik va zamonaviylikka yo'g'rilgan transformatsiya jarayoni yuz berganligi aniqlangan;

O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotining keyingi yillarida jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotining muhim sohasi sifatida teatr san'atida "ma'naviy-madaniy qudrat" va mafkuraviy-siyosiy jabhada uning "ijtimoiy kuchi" mavjudligi dalillangan, mazkur jarayon madaniyatdagi ijtimoiy buyurtma vositasida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligi isbotlangan;

o'zbek teatrining rivojlanishi "Yangi O'zbekistonni qurish", "Uchinchi Renessansni barpo etish", "Yangi ma'naviy makon", "ma'rifatli davlat"ni yaratishdan

iborat zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan uyg'unlikda rivojlanishi davlat va jamiyat taraqqiyoti, kishilar ma'naviy olamini boyitishga olib kelishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot ishida respublika teatrlari faoliyatida foydalanish mumkin bo'lgan teatr boshqaruvi, menejment va marketing masalalari, xalqaro integratsion aloqalar bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ommaviy axborot vositalari, televideniye ko'rsatuvlarida tadqiqot natijalari muhokama qilingan bo'lib, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning teatr san'atiga ta'siri va o'zaro aloqalari keng auditoriyaga targ'ib qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilgani, mavzuga doir arxiv materiallari, ilmiy asarlar, fundamental tadqiqotlarga murojaat qilingani, tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarda muhokama etilgani, mavzu yuzasidan seminar va davra suhbatlari, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, mazkur ishdan madaniyat va san'atga ixtisoslashgan o'quv yurtlari talabalari uchun fan dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda, shuningdek, respublikamizda faoliyat olib borayotgan teatrlar uchun boshqaruv strategiyasi, teatr marketingi va xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirishga doir nazariy tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, unda ilgari surilgan nazariy fikrlarni sahna jarayonlariga tatbiq etsa bo'ladi, shuningdek, spektakllarni badiiy-g'oyaviy jihatdan takomillashtirishda ham asos bo'lib xizmat qiladi. Respublika teatrlari uchun malakali kadrlar tayyorlashda nazariy qo'llanma vazifasini bajaradi, bolalar teatrini yanada rivojlantirish yo'lida maktablar bilan o'zaro hamkorlik masalalariga taalluqli ilmiy nashrlar hamda tadqiqotlar uchun muhim manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlarda o'zbek teatrining o'rnini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

O'zbekistonda an'anaviy tarzda milliy teatr uzoq asrlik tarixga ega ekanligi, sovet mustabid tuzumi sharoitida u kuchli tarzda mafkuralashgani, soxta sotsialistik realizm tamoyili ushbu san'atdagi milliylik unsurlariga salbiy ta'sir ko'rsatganligi aniqlangan ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan 2023-yilning 22-28-may kunlari o'tkazilgan "Yevroosiyo" xalqaro teatr festivalining tashkiliy jarayonlarida va spektakl muhokamalarida keng foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2024-yil 14-avgustdagi 02-11-18-2631-son ma'lumotnomasi). Natijada, teatr san'ati orqali mamlakatimizning xorij davlatlari bilan xalqaro integratsion va ijtimoiy-madaniy aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilgan;

mustaqillik yillarida o'zbek teatrining ijtimoiy-madaniy faoliyati jamiyat a'zolarida milliy identlikni shakllantirish, teatr boshqaruvi tizimida modernizatsiya, ish faoliyatida milliylik va zamonaviylikka yo'g'rilgan transformatsiya jarayoni yuz berganligi aniqlangan xulosalardan xalqaro teatr festivallari faoliyatini tashkil etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2024-yil 14-avgustdagi 02-11-18-2631-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'zbek teatrining madaniy diplomatiyani rivojlantirishdagi o'rne, ijtimoiy-madaniy faoliyati jamiyat

a'zolarida milliy identlikni shakllantirishi, teatr boshqaruvi tizimida modernizatsiya, ish faoliyatida milliylik va zamonaviylikka yo'g'rilgan transformatsiya jarayoni yuz berganligi aniqlangan;

O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotining keyingi yillarida jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotining muhim sohasi sifatida teatr san'atida "ma'naviy-madaniy qudrat" va mafkuraviy-siyosiy jabhada uning "ijtimoiy kuchi" mavjudligi dalillangan, mazkur jarayon madaniyatdagi ijtimoiy buyurtma vositasida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligi isbotlangan ilmiy-nazariy qarashlardan "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Hamma uchun" ko'rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 14-oktabrdagi 01-44-305-son ma'lumotnomasi). Natijada, "Hamma uchun" ko'rsatuvida taqdim etilgan spektakllar bo'yicha chiqarilgan ilmiy xulosalar orqali jamiyat birdamligi va badiiy madaniyat rivojida o'zbek teatrining ahamiyati masalalariga oid ilmiy xulosalar keng auditoriyaga teatrning zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlardagi ahamiyati ochib berilgan;

o'zbek teatrining rivojlanishi "Yangi O'zbekistonni qurish", "Uchinchi Renessansni barpo etish", "Yangi ma'naviy makon", "ma'rifatli davlat"ni yaratishdan iborat zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan uyg'unlikda rivojlanishi davlat va jamiyat taraqqiyoti, kishilar ma'naviy olamini boyitishga olib kelishi dalillangan ilmiy xulosalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yil uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlar dasturining VI yo'nalishida belgilangan "Buyuk allomalar va ma'rifatparvar jadidlarning ma'naviy merosini chuqur o'rganish, ilmiy-ijodiy asarlarini keng targ'ib qilishga qaratilgan" 42-bandi "Buyuk alloma va ma'rifatparvar jadidlar hayoti va faoliyatini chuqur o'rganish, boy ma'naviy va madaniy meroslarini asrab avaylash, ilmiy-ijodiy asarlarini keng targ'ib qilish" bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2025-yil 22-apreldagi 10/222-sonli dalolatnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar teatrning ijtimoiy-madaniy jaryonlar bilan uzviyligi, buyuk alloma va jadidlarning faoliyatini yoritishi, jamiyatda ijtimoiy muhitni shakllantiruvchi, yoshlarning ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatishi asosida uning hozirgi davrdagi muhim vazifalarini yoritishga va targ'ibotchilar uchun uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy maqola, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta, shu jumladan, xorijiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan, ishning hajmi 152 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, mavzuning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, bajarilgan ish oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi asoslangan, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan, shuningdek, mavzu bo'yicha e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Teatr san’atiga ijtimoiy-madaniy jarayonlar ta’sirining tarixiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi ikki bo‘limdan iborat. Bobda turli davrlardagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarning teatrga ta’siri xususida fikr yuritiladi, amaliy jihatlar tahlil qilinadi. **“Mavzuni o‘rganishning nazariy aspektlari”** deb nomlangan birinchi bo‘limi o‘zbek teatr san’ati taraqqiyotining ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilishi, vujudga kelishi, jadidlar orttirgan ilmiy-ijodiy tajribalari, rivojlanish jarayonlari, g‘oyaviy jihatdan taraqqiyot bosqichlari, milliy teatr tamoyillari haqidagi amaliyotchi va nazariyotchilarning ilmiy-nazariy mulohazalariga bag‘ishlangan. Mazkur bo‘limda sobiq sovet davri va mustaqillik davri manbalari, jahonda, Rossiyada hamda yurtimizda ijtimoiy-madaniy jarayonlarning teatrga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar o‘rganilgan.

T.Tursunovning **“Oktabr inqilobi va o‘zbek teatri”**⁶ nomli monografiyasida 1917-yil yuz bergan Oktabr inqilobi, bolsheviklarning hukumat tepasiga kelishi va ushbu siyosiy jarayonning madaniy muhit, xususan, teatr san’atiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi. Muallif oktabr inqilobiga qadar o‘zbek xalqi professional teatrga ega bo‘lmagani, Turkistonning Rossiyaga qo‘shib olinishi natijasida bu mamlakatda ham yevropa tipidagi teatr yaratishga qiziqish paydo bo‘lganini ta’kidlaydi.

Professor N.Sayfullayevning **“Yangi davr O‘zbekiston teatri: rivojlanish muammolari va izlanish jarayonlari”**⁷ nomli monografiyasi mavzuga doir muhim manbalardan bo‘lib, unda muallif yangi davr milliy teatr san’atining asosiy yo‘nalish va tendensiyalari, jamiyat hayotidagi o‘rni va ustuvor vazifalari, sohada menejment va marketing masalalari, teatr repertuarlarining badiiy-g‘oyaviy, ijtimoiy-ma’naviy xususiyatlarini tadqiq etish orqali O‘zbekistonda ushbu san’atning rivojlanishi va istiqboli bo‘yicha zarur ilmiy xulosa va takliflar beradi. Tadqiqotning xarakterli xususiyati shundaki, unda mamlakatimiz tarixidagi murakkab davr – Sovet hokimiyatining parchalanishi va O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi, ayni jarayonda ijtimoiy-madaniy sohalarda yuz bergan islohotlar, shu jumladan, teatr san’atidagi ijodiy izlanishlar mafkuraviy hodisalar bilan bog‘liqlikda tahlil qilinadi.

⁶ Турсунов Т. Октябрьская революция и узбекский театр. – Т.: Изд “Фан”, 1983. – 192 с.

⁷ Sayfullayev N. Yangi davr O‘zbekiston teatri: rivojlanish muammolari va izlanish jarayonlari. – T.: Mumtoz so‘z, 2011. – 268 b.

Teatrshunos E.O‘rinovning “Bugungi o‘zbek teatri”⁸ nomli risolasida ham mavzuga doir qator maqolalarni uchratish mumkin. Muallif uzoq yillar Madaniyat vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlarda samarali mehnat qilgani, madaniyat boshqaruvida ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgani bois ijtimoiy-madaniy jarayonlarda teatr san‘atining tutgan o‘rnini amaliy va nazariy jihatdan puxta o‘rgangan. Xususan, kitobdan targ‘ibiy-ma‘rifiy xarakterga ega bo‘lgan bir qator maqolalar o‘rin olgan bo‘lib, ularda istiqloq davri milliy teatrimizda yuz bergan badiiy-g‘oyaviy o‘zgarishlar: dramaturgiya, rejissura va aktyorlik san‘atidagi tendensiyalar, repertuar muammosi, turli festival va anjumanlarning madaniy aloqalarni mustahkamlashdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Darhaqiqat, qayta qurish yillari dramaturgiya va teatrdan tanqidiy yondashuv rivojlanib, jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, turli illatlarni oshkora fosh etish tendensiyasi kuchaygan bo‘lsa-da, o‘zbek teatrining chinakam milliy qiyofasi, ijodiy va mafkuraviy infratuzilmasi mustaqillik yillari yuzaga chiqdi va shakllandi. Mustabid tuzum iskanjasidan xalos bo‘lgan xalq milliy o‘zligi va tarixiy xotirasini qayta tiklashi, ajdodlarining boy ma‘naviy merosini o‘zlashtirishi, yosh avlod ongiga yuksak g‘oyalar va axloqiy qarashlarni singdirishda teatr san‘atining o‘rni va ahamiyati muhim edi. Mustaqillikning ilk yillari respublika teatrlarida tarixiy mavzuning yetakchilik qilishi, folklor ruhidagi, milliy qadriyat va an‘analarni targ‘ib qiluvchi asarlarga murojaatning ortishi aynan shu omil bilan bog‘liq edi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbek teatri taraqqiyotiga ijtimoiy-madaniy jarayonlar ta’siri”** deb nomlangan ikkinchi bo‘limi o‘zbek teatrining ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan uzviy bog‘liqligi va taraqqiyot bosqichlari masalalari tahliliga bag‘ishlanadi.

O‘zbek teatri tarixida ijtimoiy-madaniy jarayonlar ta’sirini quyidagi bosqichlarda ko‘rish mumkin:

Jadidlar teatri (1910–1920-yillar o‘rtalarigacha). Bu davrda millatni uyg‘otish, Turkistonni dunyoning eng ilg‘or mamlakatlari qatoriga olib chiqishni maqsad qilgan jadid ma‘rifatparvarlari milliy dramaturgiya va teatr san‘atiga tamal toshini qo‘yishdi. Ularning asarlarida xalq orasidagi ko‘plab illatlar, ijtimoiy muammolar tanqid ostiga olindi, ilmsizlik, dabdababozlik, isrofgarchilik va boshqa illatlarning fojiasi, oqibati ko‘rsatib berildi.

Oktabr inqilobi va sovet hukmronligi o‘rnatilgan yillar (1917–30-yy). 1917-yilgi inqilob teatr san‘atiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelgach, teatrdan o‘z g‘oyalari, qarashlarini targ‘ib qilish yo‘lida foydalandilar. Turkistonda sovet mafkurasini tarannum etishga qaratilgan turkum asarlar yaratildi. Xususan, “Bo‘ron” (V.Bill-Beloserkovskiy), “Bronepoyezd 14–69” (V.Ivanov), “Signal” (S.Polivanov), “Isyon” (D.Furmanov), “Portfelli odam” (A.Fayko) singari rus dramaturgiyasi asarlari tarjima qilinib, sahnalashtirildi. Biroq Oktabr inqilobining milliy teatr san‘atimizga ijobiy ta’sirini ham e’tirof etish lozim. Jumladan, teatrning hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi natijasida ijodkorlar bir qancha badiiy-barkamol spektakllarni yaratishga muvaffaq bo‘lishdi.

⁸ O‘rinov E. Bugungi o‘zbek teatri. – T.: M-Dilshod, 2014. – 156 b.

Ikkinchi jahon urushi yillari (1940–50-yillar). Bu davrda frontga safarbarlik, vatanparvarlik, g'alaba shukuhini kuchaytirishga xizmat qiluvchi sahna asarlari yaratish teatrlarning asosiy vazifasiga aylandi. Komil Yashinning "O'lim bosqinchilarga" (1941–1942), "Davron ota" (S.Abdulla bilan hamkorlikda 1942), "Oftobxon" (1944), Uyg'un va Izzat Sultonning "Alisher Navoiy" (1942), Uyg'unning "Ona", Sobir Abdullaning "Qo'chqor Turdiyev" (1943), Sobir Abdulla, Hamid Olimjon va Uyg'unning "O'zbekiston qilichi" (1943), Hamid Olimjonning "Muqanna" (1943), Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" (1944) tarixiy dramalari, A.Kozlovskiyning "Ulug'bek" (E.Kaplan, S.Mixoels), O.Chishkoning "Mahmud Tarobiy" (Oybek, 1944) kabi librettolari sahna yuzini ko'rdi.

Urushdan keyingi turg'unlik va rivojlanish davri (1960–70-yillar). Ushbu davr ham o'zbek teatri uchun o'ziga xos murakkab, xarakterli davrlardan biri bo'ldi. Urushdan keyin teatlarda bir muddat turg'unlik kuzatildi, ijtimoiy buyurtma asarlarga e'tibor qaratildi. So'ng asta-sekin milliy teatrimizning ijodiy imkoniyatlari kengaydi, repertuarlar rang-baranglashdi, turli mavzu va janrdagi spektakllar sahnalashtirildi. Jahondagi turli xalqlarning madaniyati, qadriyatlar, urf-odatlar, milliy ozodlik yo'lidagi kurashlarini aks ettiruvchi "Jazoyir – mening Vatanim" (M.Dib), "Gang daryosining qizi" (R.Thokur) singari spektakllar yaratildi.

"Qayta qurish" va siyosiy o'zgarishlar davri (1980-yillar). Dramaturgiyada davr muammolari, shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar, ijtimoiy-axloqiy masalalarga e'tibor qaratildi. Oshkoralik davri tufayli so'z va fikr erkinligi paydo bo'ldi, ijodiy jarayonlar jonlandi, dramaturgiyada xolislik va haqqoniylik kuchaydi, o'tkir xarakterlar, konfliktlarga boy asarlar yaratildi.

Mustaqillik davri (1991-yildan h.v). Mustaqillikka erishganimizdan so'ng teatr san'atida ham tub islohotlar yuz berdi. Avvalo, tarixiy mavzudagi asarlarga e'tibor ortdi, bu xalqimizning o'zligini anglashi, tarixiy xotirasini tiklashi uchun muhim edi. Shuningdek, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va merosimizni targ'ib qiluvchi folklor-etnografik ruhdagi asarlar, jahon mumtoz dramaturgiyasi, yosh avlodning ma'naviy kamolotini yuksaltirishga xizmat qiluvchi qo'g'irchoq teatr san'atiga alohida ahamiyat qaratildi. Ijtimoiy-madaniy aloqalarni xalqaro darajada rivojlantirish maqsadida bir nechta ko'rik-festivallar o'tkazildi. Zamonamiz qahramonlari obrazini yaratish teatrlarimizning keyingi yillardagi ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **"Yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda o'zbek teatri boshqaruvi"** deb nomlanib, Mustaqillik davri O'zbekiston teatr san'atining o'ziga xos xususiyatlari, asosiy tendensiyalari, jamiyat madaniy hayotidagi o'rni va ustuvor vazifalar, menejment va marketing masalalari, teatrlarning repertuarlari, spektakllarning tahlili asosida teatr san'ati sohasida ro'y bergan transformatsiya va modernizatsiya jarayonlarini tadqiq etish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu bobda yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda o'zbek teatri boshqaruvi masalalari ikki paragrafda yoritiladi. Birinchi paragraf o'zbek teatri boshqaruvida modernizatsiya va transformatsiya masalalariga, ikkinchi paragraf esa bozor iqtisodiyoti sharoitida repertuar siyosati masalalari tahliliga bag'ishlanadi.

Bobning birinchi bo'limi **"O'zbek teatri boshqaruvida modernizatsiya va transformatsiya jarayonlari"** deb nomlangan bo'lib, jahonda sodir bo'layotgan globallashuv jarayonlari, ularga "ommaviy madaniyat"ning ta'siri, tijoratlashuv va

transformatsion jarayonlar madaniyat va san'at sohasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatishi, ushbu jarayonda inson ruhi, tafakkuriga badiiy-estetik ta'sir etuvchi teatr san'atining ham muhim o'rni mavjud ekanligi alohida qayd etilib, mustaqillik davri o'zbek teatri boshqaruvida modernizatsiya va transformatsiya masalalari haqida tahliliy fikr yuritilgan. Har qaysi zamon va makonda teatrning rivoji ijtimoiy-madaniy voqeliklar, iqtisodiy munosabatlar hamda ijodiy jarayonlar taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq ekanligi ta'kidlangan.

O'zbek teatri tarixiga nazar tashlasak, barcha davrlarda ham teatr san'atini boshqarish, nazorat qilish va undan o'z mafkurasi yo'lida foydalanish hukumat uchun dolzarb ahamiyat kasb etganiga guvoh bo'lamiz. "1917-yil oktabr to'ntarishi Rossiya imperiyasi mustamlakasi bo'lgan o'lkalar, shu jumladan, Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotida ham keskin burilish davrini boshlab berdi. O'lkadagi taraqqiyparvar ziyolilar mamlakat taraqqiyoti yo'lida faol harakat qildilar. Ushbu jarayonda madaniy masalalar ham ularning e'tiboridan chetda qolmadi. Madaniyatning ajralmas bo'g'ini bo'lgan teatr sohasi sovet tuzumining o'rnatilishi bilan yangi ko'rinishda targ'ibot-tashviqot ishlarining muhim bo'lagi sifatida asosiy o'ringa chiqdi"⁹. Darhaqiqat, Turkistonda sovet hukumati o'rnatilgandan keyin teatr truppalari to'liq davlat ixtiyoriga o'tdi, sohaga doir qator qaror va buyruqlar qabul qilindi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – teatr san'atini qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish, xalq orasiga keng tatbiq etish va shu orqali kommunistik tuzum mafkurasini ilgari surish edi. Sovet hokimiyati o'z g'oyalarini targ'ib qilish va xalq ongu tafakkurini boshqarishda teatr san'ati g'oyat zarur va qudratli mafkuraviy qurolga aylanishini anglab yetdi.

Bugungi kunda teatrlarning aynan boshqaruv tizimida ko'plab muammolarga duch kelayotganligi va uning yechimini izlash masalalariga alohida to'xtalib o'tish lozim. Masalan, teatr direktorlarining boshqaruvga oid bilimlari va malakalari yetarli darajada emas, kadrlar bilan bog'liq masalalar ham to'g'ri yo'lga qo'yilmagan, marketing masalasi juda ham sust darajada, tijoratlashtirishni yanada rivojlantirish va xorijiy tajribalarni o'rgangan holda uni amaliyotga joriy qilish kabi masalalar muhim hisoblanadi. 2024-yil 22-noyabrda qabul qilingan 399-son qarorda aynan teatrlardagi boshqaruv jarayonlarini rivojlantirishga oid qator vazifalar belgilab berildi.¹⁰

Teatrlar faoliyati bo'yicha badiiy kengash tugatilib, ixtisoslashgan badiiy-ekspert guruhlar tashkil etish; Teatrlarning yangi konsepsiyalari, sohaga ilg'or xorijiy tajribalarni samarali qo'llash; Teatr rejissorlari akademiyasi faoliyatini yo'lga qo'yish; teatr tanqidchilari va dramaturglari klubini tashkil etish; O'zbekiston teatr jamoalarining reytingi e'lon qilinishi; teatrlar brendini yaratish, faoliyatini targ'ib qilish, marketing va qo'shimcha pulli xizmatlarni yo'lga qo'yishda xususiy sektor xizmatlaridan foydalanishga ruxsat beriladi; bunday yangi o'zgarishlar teatrlarning zamon talablari asosida rivojlanishiga, xorijiy tajribalardan unumli foydalanishiga, sog'lom raqobat asosida faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

⁹ Nazarova S. XX asr 20-30-yillaridagi ijtimoiy-siyosiy muhitning o'zbek sahna san'atiga ta'siri: Tar. fan. fal. diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – B. 10.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-399-son "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2024-y., 07/24/399/1000-son

Mustaqillik yillari o'zbek teatri boshqaruvida bir qator o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, sobiq sovet tuzumi davridagi markazlashgan, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv uslubidan asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich voz kechildi. "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasining tashkil etilishi teatr boshqaruvida tizimlashgan yangi tamoyillarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Birlashma bir necha yillar davomida respublikadagi mavjud teatrlar faoliyatini tizimli boshqardi, sohaning rivojlanish istiqbollarini ishlab chiqdi va sahna ijodkorlarini har jihatdan qo'llab-quvvatladi.

Shuningdek, "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasining tashabbusi va sa'y-harakati bilan o'zbek teatrining asosiy rivojlanish tendensiyalari belgilandi. Mazkur tendensiyalarni milliy teatrimizda kechgan quyidagi jarayonlar misolida ko'rish mumkin:

Birinchidan, tarixiy mavzuga e'tibor ortdi. O'tmishdagi ulug' ajdodlarimiz haqida hikoya qiluvchi, ularning ibratli hayoti va faoliyati aks ettirilgan o'nlab dramalar yozildi va sahnalashtirildi.

Ikkinchidan, xalqimizning milliy qadriyatlari, an'ana va merosini targ'ib qiluvchi folklor-etnografik ruhdagi asarlarga e'tibor qaratildi. Professor M.Qodirov yozganidek, "Sahnaviy talqinlarda, sahnaviy obrazlarda milliy o'ziga xoslik sezilarli darajada kuchaydi. An'anaviy san'atdan oziqlanish, xalq ijodi – etnografik vositalarni keng ishga solish teatr san'atimiz istiqbolini belgilovchi dasturilamalga aylandi"¹¹. Jumladan, o'zbek xalqining milliy dostonlari – "Alpomish", "Tohir va Zuhra", shuningdek, folklor ohanglarida yaratilgan "Afandining besh xotini", "Qirmizi olma", "Alpomishning qaytishi", "Tong otgan taraflarda", o'zbek xalqining milliy marosim va urf-odatlar aks etgan "Chimildiq", "Sudxo'r", "Qalliq o'yin", "Ayolg'u", "O'zbekcha raqs" singari sahna asarlari fikrimizning yorqin dalilidir.

Uchinchidan, o'zbek teatri tarixan shakllanib kelgan jahon mumtoz dramaturgiyasiga murojaat qilish tendensiyasini davom ettirdi. Ma'lumki, milliy teatrimizning tarixiga nazar tashlasak, uning shakllanishi va rivojlanishida jahon klassik dramaturgiyasi muhim o'rin tutganini ko'ramiz. Istiqlool yillari ham xorij dramaturgiyasini sahnalashtirish an'anasi davom ettirildi, klassik asarlarni sahnaviy talqin qilishda yangi tajribalar maydonga keldi. Jumladan, O'zbekiston davlat drama teatrining "Otello" (V.Shekspir), O'zbek Milliy akademik drama teatrining "Qirol Lir" (V.Shekspir), Qarshi shahridagi Eski-machit teatr-studiyasining "Kain" (J.Bayron), O'zbek Milliy akademik drama teatrining "Hamlet" (V.Shekspir), "Makr va muhabbat" (F.Shiller), "Daraxtlar tik turib jon beradi" (A.Kassono) kabi spektakllari bunga misol bo'ladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi bo'limi "**Bozor iqtisodiyoti sharoitida repertuar siyosati**" deb nomlanib, ushbu bobda mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy sohada takomillashuv jarayonlari yuqori bosqichga ko'tarilgani, yangi jamiyatni qurish, uni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdan iborat strategik maqsadlar belgilangani, aynan bozor

¹¹ Qodirov M. XX asr o'zbek teatri tarixini davrlashtirish va qayta o'rganish muammosi // Istiqlool va milliy teatr. – T.: Yangi asr avlodi, 2002. – B. 71.

iqtisodiyoti sharoitida o'zbek teatridagi repertuar siyosatining yuritilishi ochib berilgan.

Bozor iqtisodiyoti davrida teatrlar ma'naviy faoliyat bilan birga, iqtisodiy-tijoriy faoliyat bilan ham shug'ullanishi, ya'ni, o'zi yaratgan mahsulotni sota olishi, kassaboplikni ta'minlashi talab etildi. Natijada, teatr repertuarlarida komediya janridagi, maishiy spektakllar ko'paydi. Bu asarlar tomoshabinlarni teatrga qaytarishga xizmat qildi. Bozor iqtisodiyoti davrida teatrlarning tijoriylashuvi ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishi barobarida, badiiy-estetik saviyasiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatdi. Ya'ni, teatrlarning maishiy mavzular atrofida o'ralashib qolishi natijasida repertuarlarda mumtoz, tarixiy va ijtimoiy mavzudagi asarlar salmog'i kamaydi.

